



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№6

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

6-jild
6-son
Iyun, 2026

June, 2026
Volume 6
Number 6

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna- i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Неземайкин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакوف Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

**Small business and private
entrepreneurship**

**Малый бизнес и частное
предпринимательство**



QISHLOQ XO‘JALIGIDA OILAVIY TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DEHQON XO‘JALIKLARINING AHAMIYATI

Xujakulova Nigora Rustamovna

ЗНАЧЕНИЕ ДЕХКАНСКИХ ХОЗЯЙСТВ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ

Хужакулова Нигора Рустамовна

THE ROLE OF DEHKAN FARMS IN IMPROVING THE EFFICIENCY OF FAMILY ENTREPRENEURSHIP IN AGRICULTURE

Khujakulova Nigora

Received: June 4, 2026 Revised: June 6, 2026 Accepted: June 9, 2026 Published: June 30, 2026

Annotatsiya. Mazkur maqolada qishloq xo‘jaligida oilaviy tadbirkorlik samaradorligini oshirishda dehqon xo‘jaliklarining o‘rni va ahamiyati tadqiq etilgan. Dehqon xo‘jaliklarining aholi bandligini ta‘minlash, daromadlarni oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hamda qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, dehqon xo‘jaliklari faoliyati samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar baholanib, ularni yanada rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari dehqon xo‘jaliklari oilaviy tadbirkorlikning muhim shakli sifatida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining barqarorligini ta‘minlash va qishloq aholisining turmush darajasini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: oilaviy tadbirkorlik, dehqon xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi, iqtisodiy samaradorlik, bandlik, oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq hududlari.

Аннотация. В данной статье исследованы роль и значение дехканских хозяйств в повышении эффективности семейного предпринимательства в сельском хозяйстве. Проанализировано влияние дехканских хозяйств на обеспечение занятости населения, рост доходов, укрепление продовольственной безопасности и социально-экономическое развитие сельских территорий. Также оценены факторы, влияющие на эффективность деятельности дехканских хозяйств, и разработаны научно-практические рекомендации по их дальнейшему развитию. Результаты исследования показали, что дехканские хозяйства как важная форма семейного предпринимательства играют значительную роль в обеспечении устойчивости сельскохозяйственного производства и повышении уровня жизни сельского населения.

Ключевые слова: семейное предпринимательство, дехканское хозяйство, сельское хозяйство, экономическая эффективность, занятость, продовольственная безопасность, сельские территории.

Abstract. This article examines the role and importance of dehqan farms in enhancing the efficiency of family entrepreneurship in agriculture. The study analyzes the contribution of dehqan farms to employment generation, income growth, food security, and the socio-economic development of rural areas.



Furthermore, the factors affecting the efficiency of dehqan farm activities are evaluated, and scientific and practical recommendations for their further development are proposed. The research findings indicate that dehqan farms, as an important form of family entrepreneurship, play a significant role in ensuring the sustainability of agricultural production and improving the living standards of the rural population.

Keywords: family entrepreneurship, dehqan farm, agriculture, economic efficiency, employment, food security, rural development.

■ KIRISH.

Oilaviy tadbirkorlik — bu bir oilaga mansub kishilar tomonidan tashkil qilinib yuritiladigan, asosan oila aʼzolarining mehnat faoliyatiga tayanuvchi hamda daromad olishni maqsad qilgan xoʻjalik yuritish shaklidir. Qishloq xoʻjaligi tarmogʻida oilaviy tadbirkorlik dehqon xoʻjaliklari, tomorqa yer egaligi va oilaviy fermer xoʻjaliklari orqali amalga oshiriladi.

Mazkur xoʻjalik yuritish shaklining asosiy xususiyati ishlab chiqarish jarayonining nisbatan kichik hajmda tashkil etilishi bilan birga, yuqori moslashuvchanlikka ega ekanligidir. Oilaviy tadbirkorlikda ishlab chiqarish bilan bir qatorda mahsulotni qayta ishlash, saqlash va realizatsiya qilish jarayonlari ham bir xoʻjalik doirasida amalga oshirilishi mumkin.

2025 yilda Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subʼyektlari soni 54,8 ming tani tashkil etib, yil davomida ularning soni 17 foizga oshgan. Mazkur koʻrsatkich hududda tadbirkorlik faolligining ortib borayotganligini hamda biznes muhitining nisbatan yaxshilanayotganini ifodalaydi. Bundan tashqari, viloyatda tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida qurilish materiallari tayyorlash, turizm sohasi, qishloq xoʻjaligi hamda mahalliy sanoat yoʻnalishlarida yetarli iqtisodiy imkoniyat va salohiyat mavjud.

■ MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Qishloq xoʻjaligida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish masalalari iqtisodiyot fanining muhim tadqiqot yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, dehqon xoʻjaliklarining qishloq aholisini ish bilan taʼminlash, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, daromadlarni oshirish va qishloq hududlarini barqaror rivojlantirishdagi oʻrni koʻplab olimlar tomonidan oʻrganilgan.

Jahon iqtisodiy adabiyotlarida oilaviy tadbirkorlikning nazariy asoslari A.Marshall, J. Schumpeter, P.Drucker, D.North [1] va M.Porter [2] kabi olimlarning ilmiy ishlanmalarida yoritilgan. Xususan, A.Marshall kichik xoʻjalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini asoslab bergan boʻlsa, J. Schumpeter tadbirkorlik faoliyatining innovatsion rivojlanishdagi ahamiyatini taʼkidlagan. D.North institutsional muhitning tadbirkorlik rivojiga taʼsirini oʻrganib, samarali iqtisodiy institutlar oilaviy biznesning barqaror rivojlanishiga xizmat qilishini koʻrsatgan [1].

Oʻzbekistonlik olimlardan S.S.Gʻulomov, A.V.Vahobov, B.Yu.Xodiyev, A.Rasulov, A.Oʻlmasov, N.Joʻrayev va boshqa iqtisodchilar qishloq xoʻjaligida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish masalalarini

oʻrgananlar. S.S.Gʻulomov tadbirkorlikning iqtisodiy oʻrinishdagi oʻrnini tahlil qilib, oilaviy tadbirkorlik qishloq joylarda aholi bandligini taʼminlash va daromadlarini oshirishning muhim omili ekanligini taʼkidlagan [3]. A.V.Vahobov va B.Yu.Xodiyevlar qishloq xoʻjaligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmlarini tadqiq etib, dehqon xoʻjaliklari agrar sohaning eng moslashuvchan va iqtisodiy jihatdan samarali shakllaridan biri ekanligini asoslab berganlar [4].

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur maqolada qishloq xoʻjaligi oilaviy tadbirkorlikda dehqon xoʻjaliklarining ulushi va holati oʻrganildi hamda tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida fanning dialektika, iqtisodiy tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, statistik guruhlash, monografik kuzatish, induksiya, deduksiya, mantiqiy va abstrakt fikrlash hamda istiqbolli bashoratlash usullaridan keng foydalanilgan.

■ TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR.

Qishloq xoʻjaligida oilaviy tadbirkorlikning eng muhim va keng tarqalgan shakllaridan biri dehqon xoʻjaliklari hisoblanadi. Dehqon xoʻjaliklari asosan oila aʼzolarining birgalikdagi mehnati, mulkiy manfaatdorligi va daromad olishga qaratilgan faoliyati asosida tashkil etiladi. Shu jihatdan ular oilaviy tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy va tashkiliy shakli sifatida namoyon boʻladi.

Dehqon xoʻjaliklarining oilaviy tadbirkorlikdagi oʻrni, avvalo, ishlab chiqarish jarayonida oila aʼzolarining bevosita ishtirok etishi bilan belgilanadi. Yer maydonidan foydalanish, mahsulot yetishtirish, jarayonlarining aksariyati oila aʼzolari tomonidan amalga oshiriladi. Natijada mehnat unumdorligi oshadi, ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi va oilaning iqtisodiy manfaatdorligi kuchayadi.

Bundan tashqari, dehqon xoʻjaliklari qishloq joylarda aholi bandligini taʼminlashning muhim omili hisoblanadi. Ular nafaqat oila aʼzolarini ish bilan taʼminlaydi, balki qoʻshimcha daromad manbalarini yaratish orqali qishloq aholisining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Ayniqsa, chorvachilik, sabzavotchilik, bogʻdorchilik va polizchilik yoʻnalishlarida dehqon xoʻjaliklarining ulushi yuqori boʻlib, ular oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashda ham muhim rol oʻynaydi.

1-jadval maʼlumotlaridan koʻrinib turibdiki, 2026-yilning 1-aprel holatiga koʻra Oʻzbekiston Respublikasida jami 353 472 ta dehqon xoʻjaligi faoliyati koʻrsatilmoqda. Hududlar kesimidagi tahillar shuni koʻrsatmoqda. (13.37%) va Samarqand (1.91%) viloyatlariga xoʻjaliklarining qariyb 40.35 foizini oshiradi bilan izohlanadi.



1-jadval.


O'zbekistonda dehqon xo'jaliklarining hududlar kesimidagi taqsimoti va salmog'i (2026-yil 1-aprel holatiga)²⁷

T/r	Hududlar nomi	Dehqon xo'jaliklari soni (birlikda)	Respublika bo'yicha ulushi (%)
1	Andijon viloyati	53 265	15.07%
2	Xorazm viloyati	47 276	13.37%
3	Samarqand viloyati	42 084	11.91%
4	Farg'ona viloyati	32 554	9.21%
5	Qashqadaryo viloyati	30 374	8.59%
6	Surxondaryo viloyati	25 834	7.31%
7	Namangan viloyati	24 961	7.06%
8	Buxoro viloyati	20 716	5.86%
9	Toshkent viloyati	20 524	5.81%
10	Jizzax viloyati	17 309	4.90%
11	Sirdaryo viloyati	13 813	3.91%
12	Qoraqalpog'iston Respublikasi	13 381	3.79%
13	Navoiy viloyati	11 326	3.20%
14	Toshkent shahri	55	0.02%
	Jami respublika bo'yicha	353 472	100.00%

Aksincha, cho'l-dasht zonalariga ega bo'lgan Navoiy viloyatida (3,20%) hamda urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan Toshkent shahrida (0,02%) dehqon xo'jaliklarining ulushi eng minimal ko'rsatkichni qayd etgan. Yer resurslarining mavjudligi va iqtisodiy ixtisoslashuv darajasi turlicha bo'lgan dalolat beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida dehqon xo'jaliklari moslashuvchan va samarali xo'jalik yuritish shakli

sifatida rivojlanib bormoqda. Ular nisbatan kam xarajat bilan ishlab chiqarishni tashkil etish, bozor talabiga tez moslashish va mavjud resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatiga ega. Shu sababli dehqon xo'jaliklari qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy negizi hisoblanadi.

**1-rasm. Dehqon xo'jaliklarining hududiy taqsimoti (kamayish tartibida, birlikda)²⁸**

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining joriy statistik hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining joriy statistik hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



Qashqadaryo viloyati misolida ham dehqon xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy qismini shakllantirmoqda. Viloyatda 2025-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 69,5 foizi dehqon xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 92,5 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar dehqon xo'jaliklari oilaviy tadbirkorlikning asosiy subyekti sifatida agrar sektorda yetakchi mavqega ega ekanligini tasdiqlaydi.

Dehqon xo'jaliklari qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy, tashkiliy va ijtimoiy asosini tashkil etib, aholi bandligini ta'minlash, daromadlarni oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hamda qishloq hududlarini barqaror rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qashqadaryo viloyatida oilaviy tadbirkorlik asosan chorvachilik, sabzavotchilik, polizchilik, bog'dorchilik hamda parrandachilik yo'nalishlarida rivojlangan bo'lib, bu hududning tabiiy-iqlim sharoitlari va aholi bandligi tuzilmasi bilan chambarchas bog'liqdir. Viloyatda qishloq aholisi ulushining yuqoriligi oilaviy tadbirkorlikning keng tarqalishiga sharoit yaratmoqda.

Oilaviy tadbirkorlik qishloq xo'jaligida muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajaradi. Avvalo, u qishloq joylarda aholini band qilishning samarali mexanizmi hisoblanadi. Qashqadaryo viloyatida mehnat resurslarining katta qismi aynan qishloq joylarda yashayotganligini inobatga oladigan bo'lsak, oilaviy tadbirkorlik aholini ish bilan ta'minlashda asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, oilaviy tadbirkorlik aholining daromadlarini oshirish orqali ularning turmush darajasini yaxshilaydi. Dehqon va tomorqa xo'jaliklari orqali yetishtirilayotgan mahsulotlar nafaqat oilaning o'z ehtiyojini qondiradi, balki bozorga chiqarilib, qo'shimcha daromad manbai bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, oilaviy tadbirkorlik hududiy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarilayotgan go'sht, sut, sabzavot va meva mahsulotlarining muhim qismi aynan oilaviy xo'jaliklar hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan ta'minlash imkonini kengaytiradi.

2-jadval

Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar tahlili²⁹

Omillar guruhi	Omil mazmuni	Oilaviy tadbirkorlikka ta'siri	Tahliliy baho
Tabiiy-iqlim omillari	Iqlim sharoiti, vegetatsiya davri	Ekin turlarini tanlash va hosildorlik darajasini belgilaydi	Qulay, ammo qurg'oqchilik xavfi yuqori
	Suv resurslari bilan ta'minlanganlik	Ishlab chiqarish barqarorligini belgilaydi	Cheklangan, sug'orish samaradorligini oshirish zarur
Iqtisodiy omillar	Moliyaviy resurslarga kirish	Texnika va resurslar xarid qilish imkoniyatini belgilaydi	Yetarli emas, kreditga ehtiyoj yuqori
	Mahsulot bozor narxlar	Daromadlilik darajasini belgilaydi	Beqaror, vositachilar ulushi yuqori
Tashkiliy-institutsional omillar	Davlat dasturlari va subsidiyalar	Ishlab chiqarishni kengaytirish imkonini beradi	Ijoiy ta'sir ko'satmoqda
	Huquqiy-me'yoriy baza	Xo'jalik yuritish sharoitini belgilaydi	Asosan qulay
Texnologik omillar	Zamonaviy agrotexnologiyalar	Hosildorlik va mehnat unumdorligini oshiradi	Joriy etish darajasi past
	Texnika bilan ta'minlanganlik	Ishlab chiqarish hajmini belgilaydi	Eskirgan texnika ustun
Infratuzilmaviy omillar	Saqlash va sovitish omborlari	Mahsulot yo'qotilishini kamaytiradi	Yetarli emas
	Transport-logistika tarmog'i	Bozorga chiqish imkoniyatini belgilaydi	Hududlar bo'yicha notekis
Ijtimoiy omillar	Mehnat resurslari mavjudligi	Ishlab chiqarish hajmiga ta'sir qiladi	Yetarli, ammo malaka past
	Aholining tadbirkorlik ko'nikmalari	Faoliyat samaradorligini belgilaydi	O'quv va treninglar zarur

²⁹ Statistika ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi



2-jadval ma'lumotlari Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi ko'p omilli jarayon ekanligini ko'rsatadi. Avvalo, tabiiy-iqlim omillari ushbu faoliyatning asosiy belgilovchi omillaridan biri hisoblanadi. Viloyatning iqlim sharoiti dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirish uchun qulay bo'lsa-da, suv resurslari bilan ta'minlanganlikning cheklanganligi ishlab chiqarish barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, sug'oriladigan yerlar ulushining yuqoriligi suvdan foydalanish samaradorligini oshirish zaruratini kuchaytiradi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiy omillar tahlili shuni ko'rsatadiki, oilaviy tadbirkorlik sub'yektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati yetarli darajada emas. Kredit olish mexanizmlarining murakkabligi va garov talablarining yuqoriligi texnika va zamonaviy ishlab chiqarish vositalarini xarid qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bilan birga, mahsulot bozor narxlarining beqarorligi va vositachilar ulushining yuqoriligi oilaviy xo'jaliklar daromadlilikining pasayishiga olib kelmoqda.

Tashkiliy-institutsional omillar doirasida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan qo'llab-quvvatlash dasturlari va subsidiyalar oilaviy tadbirkorlik rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq ayrim hududlarda huquqiy-me'yoriy tartib-taomillarning murakkabligi va byurokratik to'siqlarning saqlanib qolishi ushbu qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda.

Texnologik omillar tahlili oilaviy tadbirkorlikda zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish darajasi pastligini ko'rsatadi. Eskirgan texnika va qo'lda mehnatga tayanish ishlab chiqarish samaradorligini cheklab, mehnat unumdorligining past darajada qolishiga sabab bo'lmoqda. Tomchilatib sug'orish, intensiv bog'lar va issiqxona texnologiyalarining keng joriy etilishi ushbu muammoni yumshatishi mumkin.

Infratuzilmaviy omillar ham muhim ahamiyatga ega. Mahsulotlarni saqlash va sovutish omborlarining yetarli emasligi, transport-logistika tizimining hududlar bo'yicha notekis rivojlanganligi oilaviy tadbirkorlik sub'yektlarining bozorga chiqish imkoniyatlarini cheklamoqda. Natijada, ishlab chiqarilgan mahsulotning bir qismi yo'qotilmoqda yoki past narxlarda sotilmoqda.

Ijtimoiy omillar nuqtayi nazaridan, viloyatda mehnat resurslari yetarli bo'lsa-da, aholining tadbirkorlik ko'nikmalari va zamonaviy boshqaruv bilimlari yetarli darajada shakllanmagan. Bu holat oilaviy tadbirkorlik sub'yektlarining innovatsion faoliyatini susaytiradi hamda ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil etishga to'sqinlik qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. North D.C. *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge University Press, 1990.
2. Porter M.E. *The Competitive Advantage of Nations*. Free Press, 1990.
3. G'ulomov S.S. *Tadbirkorlik va kichik biznes asoslari*. Toshkent.
4. Vahobov A.V., Xodiyev B.Yu. *Iqtisodiyot nazariyasi va tadbirkorlik asoslari*. Toshkent.
5. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari (stat.uz).
6. O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonuni.
7. Xujakulova N.R., Sharofova S.A. "Qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning ijtimoiy siyosati" *Innovatsion iqtisodiyot / Innovatsionnaya ekonomika / The innovation economy. Ilmiy-amaliy elektron jurnal, (OAK) 2025/2, iyun. 144-148-betlar*
8. Xujakulova N.R., Sharofova S.A. "Qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning mohiyati va zaruriyati" *Innovatsion iqtisodiyot / Innovatsionnaya ekonomika / The innovation economy. Ilmiy-amaliy elektron jurnal, (OAK) 2025/2, iyun. 164-167-betlar*.
9. Sharofova S.A. "Qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishlari va istiqbollari" *Innovatsion iqtisodiyot / Innovatsionnaya ekonomika / The innovation economy. Ilmiy-amaliy elektron jurnal (OAK) 2026/1, yanvar. 100-104-betlar*.
10. Samieva G.T. "Dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash yo'nalishlari". *Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati*. – Toshkent, 2019.
11. Togaeva D.A. *Issues of classification, marking and increasing competitiveness of family enterprises in the service sector*. *International multidisciplinary journal for research & development* eissn 2394-6334 Volume11, issue 01(2024) 17-24 betlar.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Xujakulova Nigora Rustamovna, Qarshi davlat texnika universiteti, Innovatsion iqtisodiyot kafedrasi dotsenti. / Хужакулова Нигора Рустамовна, Доцент кафедры инновационной экономики Каршинского государственного технического университета. / Khujakulova Nigora, Associate Professor, Department of Innovative Economics, Karshi State Technical University.

E-mail: nigorakhujakulova86@gmail.com

ORCID: 0009-0001-2936-1972



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz